

MILLIY GVARDIYA TIPIDAGI XORIJIY MAMLAKATLAR BO'LINMALARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH SOHASIDAGI O'ZIGA XOS TAJRIBASI



Mahmudov Jasur Xamidovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fransiya, AQSH, Germaniya va Rossiya davlatlarida Milliy gvardiya tipidagi harbiylashtirilgan tuzilmalarning jamoat tartibini saqlashdagi institutsional va huquqiy faoliyati tahlil qilingan. Tahlil orqali mazkur tuzilmalarning vakolatlari, jamoat bilan muloqot madaniyati, kuch ishlatish standartlari, yuridik asoslar va jamoatchilik nazorati mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, jamoat tartibi, institutsional rivojlanish, kuch ishlatish, huquqiy mexanizmlar, profilaktika, jamoatchilik nazorati.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Аннотация. В статье проанализирована институциональная и правовая деятельность военизированных структур типа Национальной гвардии во Франции, США, Германии и России в сфере обеспечения общественного порядка. Раскрыты полномочия, культура общения с населением, стандарты применения силы, юридические основания и механизмы общественного контроля.

Ключевые слова: Национальная гвардия, общественный порядок, институциональное развитие, применение силы, правовые механизмы, профилактика, общественный контроль.

INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF THE NATIONAL GUARD OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

Abstract: This section analyzes the institutional and legal activities of militarized National Guard-type structures in France, the USA, Germany, and Russia in maintaining public order. It explores their powers, public engagement culture, force application standards, legal frameworks, and accountability mechanisms.

Keywords: National Guard, public order, institutional development, use of force, legal mechanisms, prevention, public oversight.

Jamoat tartibini ta'minlash, fuqarolar xavfsizligini kafolatlash va ichki siyosiy barqarorlikni saqlash har bir davlatning strategik maqsadlaridan biri sanaladi. Zero, bu maqsadlarga erishish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali va professional faoliyatiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, globallashuv jarayoni kuchaygan XXI asrda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar – terrorchilik harakatlari, ommaviy

norozilik namoyishlari, noqonuniy ommaviy yig'ilishlar va keng ko'lamli madaniy-sport tadbirlari doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar fonida mazkur sohadagi maxsus tuzilmalar – Milliy gvardiyalar va ularga o'xshash qo'shinlar faoliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi harbiylashtirilgan tuzilmalar jamoat tartibini saqlashda Ichki ishlar vazirligi va armiya o'rtasida funksional "ko'prik" vazifasini

bajaradi, chunki ular tinch aholi bilan muloqotda bo'lishga tayyor, shuningdek kerakli harbiy imkoniyatlarga ham ega.

Masalan, **Fransiyaning “Gendarmerie Nationale”** tuzilmasi ichki va mudofaa siyosatining kesishuvida joylashgan, Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklariga bir vaqtning o'zida bo'ysunuvchi gibril-harbiy tuzilma hisoblanadi [1]. Uning funksional majmuasi faqat huquqni muhofaza qilish bilan cheklanib qolmasdan, mamlakat ichki barqarorligi va milliy xavfsizligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Gendarmerie Nationale ommaviy namoyishlarni nazorat qilish, qishloq hududlarda jinoyatchilikni bartaraf etish, shuningdek, strategik ahamiyatga ega davlat obyektlarini muhofaza qilish sohalarida yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritadi.

Mazkur tuzilmada kadrlar tayyorlash masalasi institutsional yondashuv asosida tashkil etilgan bo'lib, jandarmeriya ofitserlari “*École des officiers de la gendarmerie nationale*” (EOGN)da maxsus harbiy, huquqiy va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha kompleks o'quv dasturlari asosida tayyorgarlikdan o'tadilar[2]. Ta'lim jarayonida ularga strategik tahlil, taktik boshqaruv, inqirozli vaziyatlarda qaror qabul qilish, komandirlik salohiyatini rivojlantirish kabi malakalar shakllantiriladi.

Bundan tashqari, jandarmeriya faoliyatida jamoat bilan muloqotni institutsionallashtirish muhim o'rin tutadi. U “*community policing*” (jamoatga yaqin politsiya) modeli asosida amalga oshirilib, mahalliy aholi bilan doimiy muloqot va hamkorlik orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni qamrab oladi [3]. Fransuz amaliyotida mazkur yondashuv “*proximal policing*” (yaqin muloqotga asoslangan politsiya faoliyati) nomini olgan bo'lib, u jamoatchilikning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda [4].

Shuningdek, Fransiyaning Gendarmerie Nationale tuzilmasining fuqarolarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash borasidagi **vakolatlari** ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha tizimlashtirilgan va huquqiy-me'yoriy hujjatlarga

asoslangan. Bular Fransiya davlatining Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi (Code de procédure pénale), jamoat tartibini ta'minlash to'g'risidagi qonunlar va Jandarmeriya Ustavi asosida amalga oshiriladi [5]. Uning fuqarolarga nisbatan ta'sir choralari Fransiya qonunchiligida belgilangan “proporsionallik”, “legitimlik” va “zarurat” prinsiplariga tayanadi va quyidagi huquqiy ta'sir choralari qo'llaniladi. Bularga:

a) ma'muriy ta'sir choralari:

- jamoat tartibini buzish holatlarida *joyida og'zaki ogohlantirish*;
- kichik ma'muriy huquqbuzarliklar uchun *jarima solish* (masalan, ko'chada spirtli ichimlik iste'moli, noqonuniy yig'ilish);
- fuqaroni *vaziyatdan kelib chiqib vaqtincha ushlash* (réquisition d'office) huquqi.

b) jinoyat-protsessual vakolatlar:

- *shubha qilingan shaxsni ushlash* va uni politsiya uchastkasini olib borish (garde à vue) – prokuror ruxsati asosida;
- *qidiruv o'tkazish, ashyoviy dalillarni musodara qilish, tergov harakatlarida ishtirok etish* (protocole d'enquête);
- sud ruxsatisiz *favqulodda holatda zo'r-lash ehtimoli bo'lgan hududga kirish*.

v) kuch ishlatish vakolati (usage de la force):

- Fransiya qonunchiligida Gendarmerie kuch ishlatishi mumkin, lekin bu faqat *huquqiy asos va vaziyatdagi zarurat* hollarida amalga oshiriladi;
- har qanday kuch ishlatish holatida “*proporsionallik*” tamoyili majburiy hisoblanadi;
- ommaviy tartibsizliklarda *ko'z yoshlantiruvchi gaz, rezina o'qlar va shitlardan* foydalanishga ruxsat beriladi – faqat maxsus buyruq asosida.

Fransiyaning “**Gendarmerie Nationale**” tuzilmasining ommaviy namoyishlar vaqtidagi vakolatlariga:

- Jandarmeriya xodimlari Fransiya ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan “*Maintien de l'ordre*” (*Jamoat tartibini saqlash*) protokoliga amal qiladi;
- namoyishda ishtirok etayotgan shaxslarni

distansion kuzatish, shaxsini aniqlash, zarurat bo'lganda tarqatish va administrativ ushlash vakolatlariga ega.

Fransiyaning **“Gendarmerie Nationale”** tuzilmasining nazorat va mas'uliyati:

- har qanday kuch ishlatish yoki ta'sir chorasi qo'llanilgan holatda jandarm xodimi *maxsus raport* tayyorlashi shart.

- fuqarolar o'z huquqlari buzilgan deb hisoblasa, *Défenseur des droits* (Ombudsman) organiga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

- Jandamlarning harakatlari ustidan prokuratura, ichki audit bo'limlari va mustaqil kuzatuv organlari tomonidan nazorat o'rnatilgan.

AQSHdagi *National Guard* esa ikki yurisdiksiyada – federal va shtat darajasida faoliyat yurituvchi, tezkor safarbar etiladigan tuzilma bo'lib, jamoat tartibini tiklash, favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni qutqarish, tabiiy ofatlarda yordam berish kabi vazifalarni bajaradi [6]. Masalan, 2020-yildagi *George Floyd* bilan bog'liq namoyishlar chog'ida AQSH Milliy gvardiyasi ko'plab shaharlarda tinchlikni tiklashda politsiyaga ko'mak bergan. Bugungi kunda AQSHning *National Guard* faoliyati *“Title 32”* va *“Title 10 of the United States Code”* hamda *“The Insurrection Act (1807)”* va *“Posse Comitatus Act (1878)”* asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Uning fuqarolarga ta'sir choralarini qo'llash vakolati federal (*prezident buyrug'i bilan*) va shtat (*gubernator buyrug'i bilan*) darajasida farq qiladi [7]. Bularga:

birinchidan, AQSHning *National Guard* o'z faoliyati davomida *“State Active Duty va Title 32”* hujjati va shtat gubernatori buyrug'i asosida *tabiiy ofatlar, namoyishlar paytida* fuqarolarga nisbatan ma'muriy ta'sir choralarini qo'llash vakolatiga ega. Shuningdek, AQSHda Milliy gvardiya to'g'ridan-to'g'ri *hibsga olish, qidiruv o'tkazish yoki jinoiy ayblov qo'yish* huquqiga ega emas – bu vakolat shtat politsiyasiga tegishli [8];

ikkinchidan, AQSH Milliy gvardiyasi o'z federal yurisdiksiyada (*Title 10*) faoliyat yuritisa, u holda ular *qonunbuzarlikka aralashish, kuch ishlatish, hibsga olish* vakolatiga ham ega bo'ladi. Masalan,

2020-yilda Vashingtondagi ommaviy tartibsizliklar paytida prezident buyrug'i bilan Milliy gvardiya politsiya faoliyatiga jalb etilgan va joydagi namoyishchilarni tarqatish, kuch ishlatish va maydonni tozalash bo'yicha vakolatlar berilgan [9];

uchinchidan, Milliy gvardiya harbiy bo'linma sifatida *“Rules for the Use of Force”* (RUF) bo'yicha faoliyat yuritadi. Bu qoidalarda *hujum xavfi, inson hayotiga tahdid, ommaviy tartibsizlik holati* kabi vaziyatlarda qo'llash mumkin bo'lgan ta'sir choralari – rezina o'qlar, ko'z yoshartiruvchi gaz, miltiq bilan o'ziga xatarsiz to'xtatish kabi usullar tasdiqlangan [10];

to'rtinchidan, Milliy gvardiyaning har bir kuch ishlatish holati *“After Action Report”*, rasmiy hujjatlashtiriladi. Shuningdek, nazoratni davlat audit tashkilotlari, prokuratura va *“Inspector General of the National Guard Bureau”* amalga oshiradi. Bundan tashqari, fuqarolar o'z huquqlari buzilgan deb hisoblasa, *“federal claims”* va *“civil rights litigation”* orqali sudga murojaat qilishi mumkin [11].

Rossiya Federatsiyasidagi **Rosgvardiya** – Milliy gvardiya qo'shinlari federal tuzilmasi sifatida 2016-yilda tashkil etilgan bo'lib, jamoat tartibini saqlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, maxsus rejimli hududlarni qo'riqlash va davlat organlari faoliyatini ta'minlash kabi keng vakolatlarga ega [12]. Ushbu tuzilma yangi texnika va strategiyalar asosida, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan kuchlarni o'z ichiga oladi.

Rosgvardiya faoliyati 2016-yil 3-iyunda qabul qilingan 226-FZ-son *“Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo'shinlari to'g'risida”gi federal qonun va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat-protsessual kodekslar* kabi asosiy normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi [13]. OMON esa Rosgvardiya tarkibidagi maxsus jangovar bo'linma sifatida ichki ishlarda va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda faoliyat yuritadi [14].

OMON va **Rosgvardiyaning** ma'muriy ta'sir choralarini qo'llash bilan bog'liq vakolatlariga:

- *shaxsni tekshirish va hujjat talab qilish*: jamoat joylarida fuqaroning hujjatlarini tekshirishga ruxsat berilgan.

- *ma'muriy ushlash (zaderjaniye)*: huquq-

buzarlik holatida shaxs 48 soatgacha ushlab turilishi mumkin (KoAP RF, modda 27.3) [15].

- *qonunbuzarlik sodir etgan shaxsga jarima yoki ogohlantirish berish* maxsus protokol asosida amalga oshiriladi.

Jinoyat-protsessual vakolatlariga:

- OMON bo'linmalari tergov harakatlarida faqat *qo'llab-quvvatlovchi kuchlar sifatida* ishtirok etishi mumkin.

- Rosgvardiya xodimlari *qidiruv, hibsga olish, shaxsni kuzatish, guvohni to'plash kabi* vazifalarni IIV organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi [16].

Kuch ishlatish vakolatlariga:

- Rosgvardiya va OMON jismoniy kuch, maxsus vositalar (rezina tayoqlar, ko'z yoshlantiruvchi gaz, elektroshok qurollari), shuningdek, quroldan foydalanish huquqiga ega;

- zo'ravonlik holatlarida qonun bilan aniq belgilangan tartibda (FZ–226-son, 19–23-m.) kuch ishlatish mumkin;

- shaxs qarshilik ko'rsatsa;

- fuqarolar hayotiga tahdid solinsa;

- ommaviy tartibsizliklar yoki to'sqinliklar bo'lsa [17];

- qurol faqat *so'nggi chora sifatida* sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ommaviy namoyishlar vaqtidagi vakolatlari:

- OMON va Rosgvardiya *sanksiyalangan va noqonuniy namoyishlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda* ishtirok etadi.

- Ular namoyishchilarni *tarqatish, gruppalashtirish va hibsga olish* bo'yicha aniq taktik vazifalarni bajaradi.

- 2021-yil Navalniy namoyishlari paytida OMON fuqarolarni ommaviy ravishda ushlagan va bu inson huquqlari tashkilotlari tomonidan tanqid qilingan [18].

OMON va Rosgvardiyaning nazorat funksiyalari va javobgarligi:

- Rosgvardiya xodimlarining kuch ishlatish holatlari prokuratura va ichki xavfsizlik bo'limlari tomonidan tekshiriladi;

- ammo mustaqil kuzatuv mexanizmlarining yetishmasligi inson huquqlari tashkilotlari tomonidan tanqid qilinadi [19].

- fuqarolar Rosgvardiya yoki OMON xodimlari harakatlaridan shikoyat qilish uchun prokuratura, sud yoki "inson huquqlari bo'yicha vakolatli vakil (ombudsman)"ga murojaat qilishlari mumkin.

Germaniyada Bundespolizei mamlakat ichki xavfsizligini ta'minlashda markaziy o'rin egallaydi. Uning faoliyatida "*deeskalatsiya*" yondashuvi, ya'ni kuch ishlatishni minimallashtirish va muloqot orqali tartibni tiklash konsepsiyasi muhim o'rin tutadi [20]. Bu yondashuv Germaniyada ommaviy yig'ilishlar paytida zo'ravonliklarning oldini olishda keng qo'llanadi. Shu o'rinda, "*Bundespolizei*" faoliyati Germaniya Federal politsiyasi to'g'risidagi qonun (Bundespolizeigesetz – BPolG), shuningdek Jinoyat-protsessual kodeks (Strafprozessordnung – StPO) asosida tartibga solinadi [21]. Shuningdek, "GSG 9" bo'linmasi "*Bundespolizei*" tarkibidagi maxsus bo'linma bo'lib, terrorizmga qarshi kurash, garovga olish, xalqaro xavfli operatsiyalar bilan shug'ullanadi [22].

"**Bundespolizei**" quyidagi ma'muriy ta'sir choralariga ega:

- **shaxsni tekshirish** (*Identitätsfeststellung*): fuqaroning shaxsini aniqlash maqsadida politsiya undan hujjatlarini ko'rsatishni talab qilishi mumkin;

- **qonunbuzarlik holatida vaqtincha ushlash** (*Vorläufige Festnahme*): agar shaxs qonunbuzarlikda gumon qilinsa, uni 48 soatgacha ushlab turish huquqi mavjud [23];

- **jarima va ma'muriy protokollar**: kichik huquqbuzarliklar bo'yicha jarima qo'llaniladi (masalan, jamoat joylarida spirtli ichimlik iste'moli, ko'chani to'sish).

"**Bundespolizei**" quyidagi jinoyat-protsessual vakolatlarga ega:

- qidiruv o'tkazish, dalillar yig'ish, guvohlarni so'roq qilish, hibsga olish buyruqlarini ijro etish kabi vakolatlar Germaniya jinoyat-protsessual kodeksi asosida amalga oshiriladi;

- fuqarolarning uyida qidiruv o'tkazish faqat **sud ruxsati** asosida amalga oshiriladi, bundan mustasno holatlar juda kam uchraydi [24].

"**Bundespolizei**" quyidagi kuch ishlatish

qoidalariga amal qiladi (Zwangsanzwendung):

- kuch ishlatishga oid barcha vakolatlar “proportionality principle” – mutanosiblik tamoyiliga asoslanadi;

- Bundespolizei xodimlari maxsus tayyorgarlikdan o'tgan bo'lib, **deeskalatsiya** strategiyalaridan (muammoni kuch ishlatmasdan hal qilish) foydalanishga majbur;

- kuch ishlatish vositalari: rezina tayoqlar, gaz ballonlari, elektroshokerlar, rezina o'qlar – faqat qattiq qarshilik hollarida va rasmiy buyruq bilan qo'llaniladi [25].

“**Bundespolizei**” quyidagi maxsus operatsiyalarni (GSG 9) amalga oshiradi:

- GSG 9 fuqarolarga nisbatan ta'sir choralari faqat yuqori xavfli operatsiyalar, garovga olish, terrorchilikka qarshi kurash hollarida amalga oshiradi;

- bu bo'linma otish vakolatiga ega, lekin faqat inson hayoti xavf ostida bo'lgan, hujum sodir etilgan vaziyatlarda qurol qo'llashga ruxsat etilgan [26];

- ularning harakati federal ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura tomonidan nazorat qilinadi.

Germaniyada jamoatchilik nazorati va shaffoflik quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- *Bundespolizei faoliyati* Politsiya nazorati bo'yicha parlament qo'mitasi, ombudsman instituti va mahalliy prokuratura tomonidan nazorat qilinadi;

- har bir kuch ishlatish holati rasmiy hujjatda qayd etiladi, bu esa davlat hisobotlarida aks etadi va fuqarolarga shaffof ma'lumot taqdim etishga xizmat qiladi [27].

Mazkur davlatlar tajribasini ilmiy tahlil qilish jarayonida ularning jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi institutsional faoliyatida ko'zga tashlanadigan qator ijobiy jihatlarni aniqlash va tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ushbu tajriba elementlari milliy huquqni takomillashtirish va amaliyotni modernizatsiya qilishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga o'xshash tuzilmalar faoliyatini il-

miy tahlil qilish jarayonida rivojlangan Fransiya, AQSH, Germaniya va Rossiya kabi davlatlarning ijobiy tajribalaridan olingan ijobiy jihatlarni tizimli ravishda bayon etish maqsadga muvofiq. Bularga:

- *huquqbuzarliklarni oldindan bartaraf etishga qaratilgan profilaktika faoliyati* – Fransiyaning Gendarmerie Nationale tuzilmasi huquqbuzarliklar sodir bo'lishining oldini olish uchun jamoa bilan muntazam muloqot olib boradi va mahalliy aholi bilan ishonchga asoslangan munosabat o'rnatgan [28];

- *ikkilamchi bo'ysunuv tizimida samarali muvofiqlashtirish* – AQSH Milliy gvardiyasi federal va shtat darajalaridagi yurisdiksiyani birlashtirib, ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan moslashuvchanlikni ta'minlaydi [29];

- *ommaviy tadbirlar va favqulodda holatlarda tezkor safarbarlik imkoniyatlari* – Germaniyadagi Bundespolizei va AQSH Milliy gvardiyasi namoyishlar, tabiiy ofatlar, terakt tahdidlari holatida tezkor harakat qilishga tayyor maxsus bo'linmalarga ega [30];

- *tinch aholi bilan muloqotga asoslangan “deeskalatsiya” strategiyasi* – Germaniyada politsiya va harbiylashtirilgan tuzilmalar zo'ravonlikni kuchaytirish emas, balki fuqarolar bilan muloqot orqali muammoli vaziyatlarni yumshatishga urinadi [31];

- *maxsus tayyorgarlik va texnik jihozlarni yuqori darajasi* – Rossiyadagi Rosgvardiya va Germaniyadagi federal politsiya kuchli logistika, zamonaviy texnologiyalar va yuqori malakaga ega shaxsiy tarkib bilan ta'minlangan [32];

- *fuqarolik jamiyati va davlat tuzilmalari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga qaratilgan faoliyat* – Fransiya va AQSHda Milliy gvardiya faoliyati jamoatchilik nazorati, parlament hisobotlari va ommaviy axborot vositalari orqali ochiq va oshkora amalga oshiriladi, bu esa fuqarolar ishonchini kuchaytiradi [33].

O'zbekiston sharoitida Milliy gvardiya 2017-yilda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning alohida farmoni asosida mustaqil tuzilma sifatida tashkil etilgan bo'lib, uning vakolatlariga jamoat tartibini ta'minlash, aholi va strategik ahamiyatga ega

inshootlarni muhofaza qilish, maxsus operatsiyalarda ishtirok etish kabi ustuvor vazifalar kiritilgan. Mazkur tuzilmaning institutsional rivojlanişida xorijiy mamlakatlar, jumladan Fransiya, AQSH, Germaniya va Rossiyadagi Milliy gvardiyaga o'xshash tuzilmalarning tashkiliy-huquqiy maqomi, jamoat bilan muloqot madaniyati, maxsus tayyorgarlik tizimi va profilaktika faoliyati sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Bu jihatlar O'zbekiston Milliy gvardiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jamoat xavfsizligi mexanizmlarini kuchaytirish va milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlillarida Milliy gvardiya kabi tuzilmalarni o'rganishda ijtimoiy-funksional yondashuv eng samarali metodologik asoslardan biri sifatida qayd etiladi. Bu yondashuv jamoat tartibini ta'minlash faoliyatini faqat kuch ishlatish va huquqiy ta'sir choralari doirasida emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchli muloqotni shakllantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash jarayonining tarkibiy qismi sifatida ham baholash imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy tahlil va xorijiy amaliyot natijalari asosida, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat tartibini ta'minlashdagi institutsional va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin. Jumladan:

*birinchidan, **institutsional va huquqiy maqomni aniqlashtirish:***

O'zbekiston Milliy gvardiyasining ichki ishlar va mudofaa sohalaridagi vazifalarini aniq chegaralash, ikkilamchi bo'ysunuv tizimi (*masalan*, Fransiya Gendarmerie Nationale tizimidagi kabi)ni qonunchilikda mustahkamlash maqsadga muvofiq;

*ikkinchidan, **jamoat bilan muloqot madaniyatini mustahkamlash:***

"Community policing" va *"proximal policing"* tajribalari asosida fuqarolar bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish, mahalla, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan profilaktik hamkorlikni kengaytirish;

*uchinchidan, **qonuniy kuch ishlatish standartlarini belgilash:***

Milliy gvardiya xodimlari uchun kuch ishlatishni tartibga soluvchi alohida normativ hujjat qabul qilish, u orqali mutanosiblik, zarurat va qonuniylik prinsiplariga rioya etilishini kafolatlash;

*to'rtinchidan, **shaffoflik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish:***

Milliy gvardiya faoliyati ustidan parlament nazorati, ombudsman instituti, fuqarolik jamiyati va OAV tomonidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish);

*beshinchidan, **favqulodda holatlarda safarbarlik salohiyatini oshirish:***

tabiiy ofatlar, epidemiya, ommaviy namoyishlar paytida Milliy gvardiyani tezkor harakatlarga jalb etish uchun maxsus taktik bo'linmalarni shakllantirish;

*oltinchidan, **ijtimoiy-funksional yondashuvni institutsionallashtirish:***

jamoat tartibini ta'minlashda huquqni muhofaza qilishdan tashqari, huquqiy ong, fuqarolik madaniyati va davlat-jamiyat munosabatlarini shakllantirishda Milliy gvardiyaning ijtimoiy roli qonunon mustahkamlanishi lozim.

Ilgari surilayotgan takliflardan kelib chiqib, kutiladigan ijobiy natijalar:

- 1) Milliy gvardiya faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, vakolatlari aniq va chegaralangan bo'ladi;
- 2) fuqarolar bilan muloqot va ishonchli aloqalar orqali huquqbuzarliklar soni qisqaradi;
- 3) kuch ishlatishda mutanosiblik va qonuniylik ta'minlanadi;
- 4) Milliy gvardiya ustidan jamoatchilik nazorati shaffof faoliyat yuritishni rag'batlantiradi;
- 5) O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashning samaradorligi ortib, huquqiy davlat prinsiplari mustahkamlanadi.

Yuqorida keltirilgan takliflar jahon amaliyotida o'zini oqlagan ilg'or modellar, shuningdek, O'zbekiston huquqshunoslik maktabidagi taniqli olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy xulosalar va huquqiy tavsiyalar tahlili asosida shakllantirilgan bo'lib, ularning amalda tatbiq etilishi Milliy gvardiyaning jamoat tartibini ta'minlash sohasidagi insti-

tutsional asoslarini mustahkamlash, funksional faoliyatini zamonaviy tahdid va chaqiriqlarga mos ravishda qayta tashkil etish, hamkorlik va oshkoralik mexanizmlarini kuchaytirish hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda davlat organlari o'rtasidagi idoralararo samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu orqali Milliy gvardiya tizimida huquqiy aniqlik, tashkiliy barqarorlik va jamoatchilik ishonchiga, samarali va shaffof boshqaruv modeliga asoslangan faoliyatni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Shu orqali Milliy gvardiya tizimida huquqiy aniqlik, tashkiliy barqarorlik va jamoatchilik ishonchiga, samarali va shaffof boshqaruv modeliga asoslangan faoliyatni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Bodin J., Bourdin P.-Y. Police et démocratie: la sécurité en question. L'Harmattan, 2018.
2. <https://www.gendarmerie.interieur.gouv.fr/eogn> – École des officiers de la Gendarmerie Nationale расмий маълумотлари.
3. <https://www.gendarmerie.interieur.gouv.fr/crgn> – Community Policing in the Gendarmerie.
4. Deflem, M. (2002). Policing World Society: Historical Foundations of International Police Cooperation. Oxford University Press.
5. Code de procédure pénale, Livre Ier, art. 62-78.; Loi n 2003-239 relative à la sécurité intérieure (Loi Sarkozy).; <https://www.gendarmerie.interieur.gouv.fr> – Gendarmerie расмий сайти.; <https://www.defenseurdesdroits.fr> – Défenseur des droits, 2023.; OECD, Police Use of Force: Legal Provisions and Oversight Mechanisms in France, 2022.
6. National Guard Bureau. "Military Response to Civil Unrest 2020." U.S. Government Publishing Office, 2021. <https://www.nationalguard.mil>.
7. United States Code, Title 10 & Title 32 – <https://uscode.house.gov>.
8. Posse Comitatus Act, 18 U.S.C. § 1385 – <https://law.cornell.edu>.
9. Congressional Research Service (2020). Deployment of the National Guard in Civil Disturbances.
10. Department of Defense Directive 5210.56 – Use of Force Policy for National Guard Units.
11. National Guard Bureau Office of the Inspector General – <https://www.nationalguard.mil>.
12. Официальный сайт Росгвардии: <https://rosguard.ru>.
13. Федеральный закон №226-ФЗ "О войсках национальной гвардии РФ" от 03.07.2016 – http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_200168.
14. Официальный сайт Росгвардии – <https://www.rosguard.ru>.
15. Кодекс РФ об административных правонарушениях (КоАП), ст. 27.3 – https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661.
16. Уголовно-процессуальный кодекс РФ (УПК РФ), ст. 38–164 – http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481.
17. Закон №226-ФЗ, главы 4–5 – "Применение силы и оружия".
18. Human Rights Watch Report (2021). Russia: Police Crackdown on Peaceful Protests – <https://www.hrw.org>.
19. Amnesty International. Law Enforcement and Accountability in Russia, 2022 – <https://www.amnesty.org>
20. Bundesministerium des Innern. Bundespolizei Strategiepapier 2022. Berlin, 2022. <https://www.bundespolizei.de>.
21. Bundespolizeigesetz (BPolG), 2021 – <https://www.gesetze-im-internet.de/bpolg>.
22. Bundesministerium des Innern. Struktur der Bundespolizei und GSG 9, Berlin, 2022.
23. Strafprozessordnung (StPO), §127 – <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo>.
24. European Union Agency for Fundamental Rights (FRA). Use of Force by Law Enforcement: Country Report – Germany, 2021.
25. PoliceChief Magazine (2021). De-Escalation in German Federal Policing Practice.
26. Britannica.com – GSG 9, <https://www.britannica.com/topic/GSG-9>.
27. Bundespolizei Official Transparency Reports – <https://www.bundespolizei.de>.
28. Bodin J., Bourdin P.-Y. Police et démocratie: la sécurité en question. L'Harmattan, 2018.
29. Bailey R., Moore J. The Role of the National Guard in Domestic Security. Homeland Security Journal, 2019.
30. National Guard Bureau Reports (2020–2023): <https://www.nationalguard.mil>.
31. Bundesministerium des Innern. Bundespolizei Strategiepapier, Berlin, 2022.
32. Официальный сайт Росгвардии: <https://rosguard.ru>.
33. OSCE Report on Public Order and Internal Security Institutions (Vienna, 2022).